(2). А.Чехов. Собр. соч. в двенадцати томах. Т. 8, М., 1962, с. 476.
(3). Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T., "O'qituvchi", 2005, 100-bet.
(4). Analysis of Raymond Carver's Short Stories – Literary Theory and Criticism.
(5). Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, "Ўзбекистон", 2002, 105–106-betlar.
(6). Carver.R. Collected Stories. The Library of America. New York, NY I0022, 2009, p. 19.
(7). Nazarov B. Adabiy turlar va janrlar. 1-jild, T., "Fan" nashriyoti, 1991, 76-bet.
(8). Qahhor A. Anor. T., G'.G'ulom nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2024, 152–153-betlar.

Asqarova Zulayxo Yangiboyevna (Urganch davlat Pedagogika unstituti dotsenti v.b.; askarovazulayxo@gmail.com)

MASNAVIY JANRI POETIKASI VA UNING OGAHIYNING BADIIY MEROSIDAGI TADRIJI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida muhim o'rin tutgan masnaviy janrining poetik tabiati, shakliy va funksional xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy-badiiy merosi, xususan,"Riyoz ud-davla" asari tarkibidagi masnaviylar turadi. Maqolada masnaviy janrining tor va keng ma'nodagi talqinlari, uning epik va lirik imkoniyatlari yoritilib, Ogahiy ijodida mazkur janrning tutgan o'rni va tadrijiy rivoji ochib beriladi. Asar tarkibidagi masnaviylar miqdori aniqlanib, ular mazmun-mohiyati va funksional vazifasiga ko'ra tavsifiy, voqeaband, panegirik hamda lirik-falsafiy guruhlarga ajratiladi. Tadqiqot natijalari Ogahiy tarixiy asarlarida masnaviy janri nasriy bayonni badiiy jihatdan boyituvchi, tarixiy haqiqatni emotsional va estetik ranglar bilan yorituvchi muhim poetik vosita ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *masnaviy janri, o'zbek mumtoz adabiyoti, Ogahiy,"Riyoz ud-davla", poetika, tarixiy asar, liro-epik janr, voqeaband masnaviy, tavsifiy masnaviy, panegirik, didaktik chekinish.*

Аскарова Зулайхо Янгибоевна (и.о. доцента Ургенчского государственного педагогического института; askarovazulayxo@gmail.com)

ПОЭТИКА ЖАНРА МАСНАВИ И ЕГО РАЗВИТИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ НАСЛЕДИИ ОГАХИ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически анализируется поэтическая природа, формальные и функциональные особенности жанра маснави, занимающего важное место в узбекской классической литературе. В центре исследования находится историко-художественное наследие Мухаммада Ризы Огахи, в частности, маснави в произведении "Рияз уд-давла". В статье освещаются узкие и широкие толкования жанра маснави, его эпические и лирические возможности, раскрывается роль и постепенное развитие этого жанра в творчестве Огахи. Количество маснави в произведении определяется, они делятся на описательные, повествовательные, панегирические и лирико-философские группы в соответствии с их содержанием и функциональной задачей. Результаты исследования показывают, что жанр маснави в исторических произведениях Огахи является важным поэтическим средством, художественно обогащающим прозаическое повествование, освещающим историческую правду эмоциональными и эстетическими красками.*

Ключевые слова: *жанр маснави, узбекская классическая литература, Огахи, "Рияз уд-давла," поэтика, историческое произведение, лиро-эпический жанр, повествовательный маснави, описательный маснави, панегирик, дидактическое отступление.*

Asqarova Zulayho Yangiboyevna (Acting Associate Professor of Urgench State Pedagogical Institute; askarovazulayxo@gmail.com)

THE POETICS OF THE MASNAWI GENRE AND ITS EVOLUTION IN OGAHI'S ARTISTIC HERITAGE

Annotation. *In this article, the poetic nature, formal and functional features of the masnavi genre, which occupies an important place in Uzbek classical literature, are analyzed from a scientific and theoretical point of view. At the center of the research is the historical and artistic heritage of Muhammad Rizo Ogahi, in particular, the masnavis in the work "Riyaz ud-davla". The article highlights the narrow and broad interpretations of the masnavi genre, its epic and lyrical possibilities, and reveals the role and gradual development of this genre in Ogahi's work. The number of masnavis in the work is determined, and they are divided into descriptive, narrative, panegyric, and lyrical-philosophical groups according to their content and functional purpose. The results of the research show that the masnavi genre in Ogahi's historical works is an important poetic tool that artistically enriches the prose narrative, illuminating historical truth with emotional and aesthetic colors.*

Keywords: *masnavi genre, Uzbek classical literature, Ogahiy, "Riyoz ud-davla", poetics, historical work, lyrical-epic genre, narrative masnavi, descriptive masnavi, panegyric, didactic digression.*

Kirish (Introduction). O‘zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janri shakliy qulayligi va keng badiiy imkoniyatlari bilan ajralib turib, ayniqsa, tarixiy-adabiy asarlar tarkibida nasriy bayonni badiiy jihatdan boyituvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Xorazm tarixnavislik maktabining yetuk vakili Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining tarixiy asarlarida, jumladan, “Riyoz ud-davla”da masnaviy janridan samarali foydalangan. Mavjud tadqiqotlarda Ogahiy tarixiy asarlari tarkibidagi masnaviylar umumiy tarzda tilga olinib, ularning janriy mohiyati, funksional vazifalari hamda tarixiy matn tuzilishidagi o‘rni tizimli ravishda yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, “Riyoz ud-davla” asaridagi masnaviylarning miqdori va tasnifi borasidagi ilmiy qarashlarning turlicha ekanligi mazkur masalaning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi “Riyoz ud-davla” asari tarkibidagi masnaviylarni janr va shakl nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularning mazmuniy-funksional xususiyatlarini aniqlash hamda Ogahiy ijodida masnaviy janrining o‘rnini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun masnaviy janrining nazariy asoslarini ko‘rib chiqish, asardagi masnaviylarni aniqlash, ularni funksional vazifalariga ko‘ra tasniflash hamda tarixiy voqelikni badiiy ifodalashdagi ahamiyatini asoslash vazifalari belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ogahiyning tarixiy asarlari, xususan, “Riyoz ud-davla” tarkibidagi masnaviylarning janriy va poetik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida mumtoz Sharq adabiyotshunosligi hamda o‘zbek adabiy-nazariy tafakkurida shakllangan muhim ilmiy manbalarga tayangan holda yondashildi. Avvalo, masnaviy janrining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlashda Shams Qays Roziyning mashhur “Al-mo‘jam fi maoyiri ash’or ul-ajam” asarida bayon etilgan nazariy qarashlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur asarda masnaviyning aruz vaznidagi o‘ziga xos qofiyalanish tizimi, bayt mustaqilligi, epik voqeani keng miqyosda tasvirlash imkoniyatlari hamda didaktik va tarixiy mazmunni ifodalashdagi qulayligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, masnaviy janrining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va nazariy xususiyatlarini yoritishda Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” hamda “O‘zbek klassik she’riyati janrlari” nomli o‘quv qo‘llanmalarda ilgari surilgan ilmiy qarashlardan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiyning “Mukammal asarlar to‘plami”da jamlangan masnaviy asarlari bilan Ogahiy ijodi o‘rtasidagi an’anaviylik va yangilanish masalalari ham qiyosiy tahlil qilindi. Navoiy masnaviylarida shakllangan epik tafakkur, obrazlar tizimi va mualliflik pozitsiyasi Ogahiy tarixiy masnaviylarining poetik tabiatini aniqlashda muhim mezon sifatida qaraldi. Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” asarida bayon etilgan janr, syujet, kompozitsiya va badiiy tasvir vositalari haqidagi nazariy mulohazalar Ogahiy masnaviylarining strukturaviy xususiyatlarini tahlil qilishda asos bo‘ldi. F.G‘anixo‘jayev hamda A.Pirimqulovlarning mumtoz adabiyot va tarixiy-badiiy asarlar poetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari esa Ogahiy masnaviylarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima munosabatini aniqlash, muarrix-shoir shaxsiyatining matnda aks etish darajasini belgilashda muhim ilmiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida masnaviy janri o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u asrlar davomida ham epik ko‘lamdagi voqealarni, ham lirik kechinmalarni ifodalashda eng qulay shakl sifatida xizmat qilgan. Ogahiyning tarixiy asarlari, xususan, “Riyoz ud-davla” tarkibidagi masnaviylarni tadqiq etishdan avval, ushbu janrning nazariy chegaralarini aniqlab olish lozim. Adabiyotshunoslikka oid manbalarda masnaviy atamasiga turlicha, ammo mazmunan yaqin ta’riflar berilgan. Jumladan, “O‘zbek klassik she’riyati janrlari” kitobida shunday deyiladi: “Masnaviy arabcha so‘z bo‘lib, ikkilik degan ma’noni bildiradi. She’riy terminologiyada esa har ikki misrasi alohida-alohida qofiyalanib boradigan she’rlar masnaviydir” [1;125–127-b.].

Bu ta’rif masnaviyning eng asosiy shakliy belgisi – qofiya tizimiga (aa, bb, cc, dd...) urg‘u beradi.

Ushbu janrning tarixiy ildizlari va shakllanish xususiyatlari haqida Shams Qays Roziy o‘zining mashhur “Al-mo‘jam fi maoyiri ash’or ul-ajam” asarida shunday yozadi: “...Ajam shoirlari har bir baytdagi misralarning o‘zaro qofiyadosh bo‘lishi nuqtayi nazaridan uni masnaviy deb ataydilar” [8]. Demak, masnaviyning dastlabki va eng barqaror belgisi har bir baytning mustaqil qofiyaga ega ekanligidir. Bu xususiyat shoirga qofiya tanqisligiga uchramasdan, fikrni uzundan uzoq davom ettirish imkonini bergan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Asrimizning 20-yillarida professor Abdurauf Fitrat masnaviyga ixcham va lo‘nda ta’rif berib, uning janr ko‘lamini kengroq olgan: “...Har baytning ikki misrasi o‘ziga maxsus qofiyasi bo‘lgan tizmalarga masnaviy (ikkilik) deyiladir. Dostonlar, maktublar (ko‘proq sevgi maktublari) masnaviy yo‘sinida yoziladir” [1;51-b.].

Fitratning bu ta'rifidan anglashiladiki, masnaviy faqat shakl emas, balki katta epik polotnolar – dostonlarning asosiy qurilish vositasidir. Adabiyotshunoslikda masnaviy atamasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Tor ma'noda liro-epik tur janrlaridan biri. Izzat Sulton ta'kidlaganidek, "Voqeaviylik – masnaviyning xarakterli xususiyatidir" [7;266-b.]. Bunda muayyan sujetga ega bo'lgan kichik hajmli asarlar nazarda tutiladi.

2. Keng ma'noda har bir baytining misralari o'zaro qofiyadosh bo'lgan har qanday she'riy shakl. Bunga dostonlar, tarixiy asarlar ichidagi she'riy parchalar, soqiynomalar kiradi.

Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asaridagi masnaviylar masalasida A.Pirimqulovning kuzatishlari muhim ahamiyatga ega. Olimning ta'kidlashicha, "Biz o'ziga xos syujet yo'nalishiga ega bo'lib, tugal voqelikni to'liq ifoda qiladigan voqeaband asarlarni – masnaviylar, lirik qahramonning oni lahzasi, ichki kechinmasi ifodalangan parchalarni esa masnaviy shaklidagi she'rlar deb atash tarafdorimiz" [6.14-b.]. Bu tasnif biz uchun muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki "Riyoz ud-davla"da ham mustaqil syujetli "To'ynoma" kabi masnaviylar bilan birga, shunchaki hissiy holatni ifodalovchi masnaviy shaklidagi parchalar ham mavjud.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janri imkoniyatlaridan eng samarali foydalangan ijodkorlardan biridir. U nafaqat "Ta'viz ul-oshiqin" devonida, balki o'zining beshta tarixiy asarida, jumladan, "Riyoz ud-davla"da ham nasriy bayonni jonlantirish uchun masnaviyga murojaat qilgan.

Ogahiy masnaviylarining o'rganilishi tarixiga nazar tashlasak, F.G'anixo'jayev va A.Pirimqulovlarning tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim. F.G'anixo'jayev shoirning tarixiy asarlaridagi she'riy par-chalar, xususan, masnaviylar tarixiy voqelikni badiiylashtirishda muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydi [6;74–75-b.].

Ogahiy masnaviy yozishda, shubhasiz, Alisher Navoiy an'analariga tayangan. Navoiyning masnaviy uslubi haqidagi quyidagi mashhur bayti Ogahiy uchun ham dasturilamal bo'lgan, deyish mumkin:

"...Masnaviykim, burun dedim oni,
So'zg'a keldi vase' maydoni.
Vus'atida kezib o'lsa ma'rakagir,
Ko'rg'azur san'atin bari bir-bir..."[2;36-b.]

Darhaqiqat, Ogahiy "Riyoz ud-davla"da tarixiy voqealarni tasvirlashda nasr imkoniyatlari cheklangan nuqtalarda – jang lavhalari, tantanali qabullar, tabiat tasvirlarida "so'z maydoni vase'" bo'lgan masnaviyga o'tadi. Bu esa asardagi "epik voqelikni qator personajlar ishtirokida aks ettirish yoki lirik qahramon faoliyati, ichki kechinmalarini" [6;14-b.] yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

"Riyoz-u-d-davla" asaridagi masnaviylar shunchaki kichik she'riy parchalar emas, balki asarning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlovchi, tarixiy haqiqatga emotsional bo'yoq beruvchi muhim adabiy unsurlardir. Ularni tadqiq etishda masnaviyning ham janr (sujetli asar), ham shakl (qofiyalanish tizimi) sifatidagi xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari, xususan, "Riyoz ud-davla"dagi she'riy parchalar orasida masnaviylar salmoqli o'rin tutadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu asar tarkibidagi masnaviylar miqdori turlicha ko'rsatilgan. Xususan, A.Pirimqulov o'z tadqiqotlarida shunday yozadi:

"Xorazmda Olloqulixon hukmronlik qilgan yillar (1825–1842) voqealarini hikoya qiluvchi 1844-yilda turkiy tilda yozilgan "Riyoz ud-davla" (Saodat bo'stonlari) nomli ilk tarixiy kitob tarkibida ikki baytdan 278 baytgacha bo'lgan 91 ta masnaviy va masnaviy-parchalar mavjud. Ularning umumiy hajmi 1497 baytdan iborat" [6;19-b.]. Lekin bizning "Riyoz ud-davla" qo'lyozma matni ustida olib borgan qiyosiy o'rganishlarimiz va yangi hisob-kitoblarimiz natijasida asarda jami 110 ta masnaviy (va ayni masnaviy deb nomlangan) shaklidagi she'riy parcha mavjudligi aniqlandi.

"Riyoz ud-davla" asaridagi 110 ta masnaviyni funksional vazifasi va mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi 4 ta asosiy guruhga tasniflashni taklif etamiz:

1. Tavsifiy (deskriptiv) masnaviylar. Bu guruhga tabiat manzaralari, me'moriy obidalar va yil fasllari tasviriga bag'ishlangan she'rlar kiradi. Ogahiy nasriy bayon jarayonida o'quvchiga estetik zavq berish va tarixiy manzilni ko'z oldida gavdalantirish maqsadida ushbu usuldan foydalangan. Misollar: "Toshhovli ta'rifi", "Bog' tasviri", "Bahor tasviri" [4]. Adabiyotshunoslikda qayd etilganidek, "Epik voqelikni tafsiliy lirik bayon qilish bu janrning (masnaviyning) asosiy xususiyatidir" [5;125-b.]. Ogahiy ham aynan tavsiflash jarayonida masnaviyning keng imkoniyatlaridan (qofiya erkinligidan) foydalangan.

2. Voqeaband (syujetli) masnaviylar. Bunday masnaviylar asar syujetining ajralmas qismi bo'lib, tarixiy voqealar rivojini she'riy yo'sinda davom ettiradi. Ular, ko'pincha, jang lavhalari, safar tafsilotlari va ov jarayonlarini ifodalaydi. Bu turdagi masnaviylarda harakat (dinamika) kuchli bo'ladi. A.Primqulov

ularni "...tugal voqelikni to'liq ifoda qiladigan voqeaband asarlarni – masnaviylar... deb atash tarafdorimiz"[6;12-b.] deyishi asossiz emas, albatta. "Riyoz ud-davla"dagi "To'ynoma" (to'y tasviri) va harbiy yurishlar tasviri aynan shu guruhga mansub.

3. Panegirik (madhiya) xarakteridagi masnaviylar. Ogahiy saroy tarixchisi sifatida xon va shahzodalar faoliyatini ulug'lash, ularning g'alabalarini madh etish uchun masnaviy shakliga murojaat qilgan. Masalan, Allohqulixonning taxtga o'tirishi, g'alabalari yoki bino qildirgan inshootlari madhi. "Ogahiy asarlari tarkibida hajm jihatdan ham, mavzu va g'oya xilma-xilligi jihatidan ham va nihoyat she'riy namunalarning hajmi jihatdan ham eng ko'p uchraydigani masnaviydir" [6;19-b.].Bu masnaviylarning aksariyati an'anaviy madh yo'nalishidadir.

4. Lirik-falsafiy va didaktik chekinishlar. Bu turdagi masnaviylarda muallif tarixiy voqeadan to'xtab, dunyoning o'tkinchiligi, vafo va sadoqat, davlat boshqaruvidagi hikmatlar haqida xulosa chiqaradi.

Tadqiqot doirasida Ogahiy masnaviylarining poetik tuzilishi va janr xususiyatlari qiyosiy-tahliliy, matnshunoslik hamda tarixiy-adabiy usullar asosida o'rganildi. Tahlil uchun shoirning yetuk masnaviy namunalaridan tanlangan matnlar asos qilib olindi. Matnshunoslik tahlili natijasida Ogahiy masnaviylarida an'anaviy aruz vazni va bayt tizimi qat'iy saqlanganligi aniqlandi. Qofiya va radifning barqaror qo'llanishi masnaviyning janr talablari bilan mos keladi. Biroq ayrim baytlarda qofiya erkinligining kuzatilishi shoirning ijodiy yondashuvini namoyon etadi. Qiyosiy tahlil Ogahiy masnaviylarida Alisher Navoiy ijodiga xos janr me'yorlari davom ettirilganini ko'rsatdi. Xususan, sujetning izchil rivoji, didaktik mazmun va tasviriy vositalarning muvozanatli qo'llanishi umumiylik sifatida aniqlangan. Shu bilan birga, Ogahiy asarlarida tarixiy voqealarning kengroq yoritilishi va real shaxslar tasvirini kuzatish mumkin. Tarixiy-adabiy tahlil natijalari Ogahiy masnaviylarida ijtimoiy-siyosiy muhitning bevosita aks etganini ko'rsatadi. Matnlarda muallifning davr voqealariga munosabati, tarixiy tafakkuri va badiiy umumlashmalar aniqlangan.

Umuman, amalga oshirilgan tahlillar natijasida Ogahiy masnaviylari janr jihatidan mumtoz an'anaga tayangan holda, mazmun va tasvir vositalari nuqtayi nazaridan nisbatan mustaqil va o'ziga xos badiiy tizimga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, masnaviy janri o'zbek mumtoz adabiyotida nafaqat shakliy qulayligi, balki keng badiiy va mazmuniy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Muhammad Rizo Ogahiy ushbu janr an'analarini ijodiy rivojlantirib, uni tarixiy asarlar tarkibida samarali qo'llagan adiblardan biridir. "Riyoz ud-davla" asaridagi masnaviylar nasriy tarixiy bayonni jonlantirish, muhim voqealarga emotsional va estetik ta'sir kuchi berish, shuningdek, muallifning lirik-falsafiy qarashlarini ifodalashda muhim vazifani bajaradi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan 110 ta masnaviy mazmuni va vazifasiga ko'ra bir necha guruhlarga ajratilishi Ogahiy ijodida masnaviy janrining serqirraligini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, tavsifiy va voqeaband masnaviylarning tarixiy makon va zamonni badiiy tasvirlashdagi o'rni, panegirik hamda didaktik masnaviylarning esa asarning mafkuraviy va tarbiyaviy yo'nalishini belgilashdagi ahamiyati katta ekanligi ko'rinadi. Umuman olganda, Ogahiy masnaviylari o'zbek tarixiy-adabiy tafakkurining muhim bosqichini aks ettirib, masnaviy janrining poetik imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'targanini tasdiqlaydi. Bu holat shoir ijodining ko'p qirrali tabiati va uning Xorazm adabiy muhitidagi o'rnini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. Тошкент, "Ўқитувчи", 1995, 112-бет.

(2). Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Тошкент, "Фан", 1992.

(3). Ғанихўжаев Ф. Огаҳий маснавийлари. Адабий мерос. Тошкент, Х.С.Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институти, 1984, 2-сон (30).

(4). Муҳаммад Ризо Огаҳий. Риёз уд-давла. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, № 5364, II, 355-бет.

(5). Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. Тошкент, "Ўқитувчи", 1979, 184-бет.

(6). Пиримқулов А.Э. Огаҳий маснавийлари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, ЎзР ФА А.Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 1998.

(7). Султон И. Адабиёт назарияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1986, 408-бет.

(8). Шамс Қайс Розий. Ал-муъжам фи маойири ашъор ул-ажам. Назарий манба (қўлёзма ва нашрлар асосида).